

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA CHET TILI  
O'QITILISHNING AHAMIYATI

*Dilshodaxon Iminjonova Oybek qizi*  
*Asaka tuman 1-son kasb hunar maktabi*  
*+998976240775*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada professional ta'lim tizimida chet tili o'qitilishining ahamiyati, chet tilini o'rganishda ta'lim va amaliy qiyinchiliklar, chet til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar, ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantirish haqida batafsil bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** professional ta'lim tizimi, chet tili, o'qitish metodikasi, mantiqiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya.

**Kirish:** Oxirgi vaqtlarda jamiyatimizda chet tilining darajasi sezilarli darajada o'zgardi. Chet tillarini o'rganish zaruratga aylandi. Xalqaro aloqalarni faol takomillashtirish muhitida bitiruvchining mehnat bozoridagi qiymati ko'p jihatdan uning til bilish darajasi bilan belgilanadi. Hozirgi kunga kelib, dunyo miqyosida chet tillari sohasidagi ta'lim siyosati kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:** Chet tilini o'rganishda ta'lim va amaliy qiyinchiliklar ham paydo bo'ladi. Talabalarning turli bilim darajasi qisqa vaqt ichida mashg'ulotlarda zarur natijaga erishishga imkon bermaydi. Ayrim talabalar ta'limning boshlang'ich bosqichidan o'rta darajaga minimal til tayyorgarligi bilan o'tadilar. Bunday talabalarga ko'p vaqtni xonada berish butun jarayonni sekinlashtirishni anglatadi, chunki siz bilganingizdek, o'qituvchining ish dasturi bor, unga muvofiq u mashg'ulotlarni rejalashtirishi zarur. Qolgan talabalarda xohishni uyg'otish qiyin, biroq mumkin. Muhimi, yondashuvni topish, masalan, bolaning shaxsiy manfaatlariga e'tibor berish va hokazo. Ta'lim tizimida chet tili o'qitishning ahamiyati juda yuqori, chunki bu zamonaviy dunyoda bir nechta eng muhim o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu o'zgarishlar:

1. O'quvchilarning intellektual rivojlanishi: Chet tillarni o'rganish o'quvchilarning tuzilishi, fikrlashlari, va muhokama qobiliyatlari o'sishiga yordam beradi. Bu, ulg'ayish, boshqa tillar va madaniyatlar bilan tanishish orqali dunyoqarashlari rivojlanishiga olib keladi.

2. Tarbiyaviy faoliyat: Chet tillarni o'rganish o'quvchilarga engil tilidagi texnologiyalar va ma'lumotlarga erishishlariga yordam beradi. Bu, ularni mustaqil o'rganishlariga imkon beradi va yangi bilimlar va mahoratlarni o'rganishga ilhomlantiradi.

3. Tarixiy va madaniy g'oyalar: Chet tillarni o'rganish, o'quvchilarni boshqa madaniyatlar va tarixiy g'oyalarga yaqinroq olib keladi. Bu tarixiy va madaniy o'zgarishlarni tushunishga yordam beradi.

Tilni o'rganish hayotimizning hamma sohalaridagi har qanday yoshdagi ta'lim oluvchining va insonlarning muloqoti va shaxsiyatini takomillashtirishga yordam

beradi. Tarjimonlik, til o'rganish kabi sohalarda xorijiy tillarni bilish insonning istiqbolini oshirishi mumkin. Chet tillarini bilishni talab qiladigan ko'plab sohalardan biri huquqshunoslikdir. Xususan, xalqaro huquq sohasida tillarni bilish asosiy ahamiyat kasb etadi.

**Natijalar:** Chet til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Shuningdek, ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan qo'llaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi.

Chet til o'rgatish uning metodikasiga doir bilimlarga ega bo'lishni taqozo qiladi. Metodika va texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida asosiy ahamiyat kasb qiladi. Darsni tashkil etishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil etish metodi va mashqni tashkil qilish metodi sanaladi.

**Muhokama:** Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari takomillashadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi rivojlanadi. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. Bundan tashqari dars boshlanishida visual, dars o'rtasida harakatli yoki rolli, darsning so'nggi qismida esa o'quvchining darsda o'rgangan ma'lumotlari haqida subyektiv fikrlarini turli kartateka yoki anonimik o'yinlarda tashkillashtirish o'rganuvchini til o'rganishga qiziqtiribgina qolmay balki psixologik tomondan ham ruhlantiradi, shuningdek ta'lim sifatini oshiradi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin. Shu tufayli, chet tillarini o'qitish ta'lim tizimida ahamiyatli o'rin egallaydi. Bu bilimlarni oshirish, intellektual takomillashtirishni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, va o'quvchilarning kasbiy rivojlanishiga yordam beradi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012.
2. N.Q. Xatamova, M.N. Mirzayeva. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar", Navoiy, 2006.
3. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
4. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi. 2017.